## 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

**YAHM hajmi,** *mlrd. so'm*

**41 646,0**

**YAHM o'sish sur'ati**

**104,5 %**

**YAHM deflyator indeksi**

**113,7 %**




Dastlabki ma'lumot-larga ko'ra, 2023- yilning yanvar-sentabrida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 41 646,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-sentabri bilan taqqosla-ganda 4,5 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-sentabridagi narxlariga nisbatan 113,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Res-publikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,5 % ga yetdi.





## 2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2022- yil*** | ***2023- yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **35 054,3** | **41 646,0** | **104,5** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 33 448,4 | 40 124,6 | 104,3 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 1 605,9 | 1 521,4 | 107,3 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **33 448,4** | **40 124,6** | **104,3** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **13 665,1** | **16 458,8** | **103,6** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **7 774,6** | **9 527,4** | **107,6** |
| sanoat | 5 541,6 | 6 791,3 | 107,0 |
| qurilish | 2 233,0 | 2 736,1 | 109,0 |
| **xizmatlar** | **12 008,7** | **14 138,4** | **103,0** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 2 354,8 | 2 727,5 | 104,1 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 808,0 | 2 144,4 | 105,9 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 7 845,9 | 9 266,5 | 102,0 |



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 11 861,6 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 % ga yuqoridir.

**2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari**
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*




**2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**
*(ming so‘mda)*






**2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi** *(jamiga nisbatan % da)*

| | *2022- yil* | *2023- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 95,4 | 96,3 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 4,6 | 3,7 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **40,9** | **41,0** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **23,3** | **23,7** |
| sanoat | 16,6 | 16,9 |
| qurilish | 6,7 | 6,8 |
| **xizmatlar** | **35,8** | **35,3** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 7,0 | 6,8 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 5,4 | 5,3 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 23,4 | 23,2 |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi** *(jamiga nisbatan % da)*

**2022- yil**




| | | | |
|---|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 40,9 % | Sanoat | 16,6 % |
| Qurilish | 6,7 % | Xizmatlar | 35,8 % |

**2023- yil**




| | | | |
|---|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 41,0 % | Sanoat | 16,9 % |
| Qurilish | 6,8 % | Xizmatlar | 35,3 % |

- Yalpi qo‘shilgan qiymat
- Mahsulotlarga sof soliqlar

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 41,0 % ni, sanoat tarmog‘i 16,9 % ni, qurilish 6,8 % ni va xizmatlar sohasi 35,3 % ni tashkil qildi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi**
*(jamiga nisbatan % da)*




YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 1,4 f.p. (2022- yilning yanvar-sentabrida – 1,3 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,1 f.p. (2022- yilning yanvar-sentabrida – 0,8 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,6 f.p. (2022-yilning yanvar-sentabrida salbiy – 0,2 f.p.) va xizmatlar sohasi – 1,1 f.p. (2022-yil-ning yanvar-sentabrida – 2,0 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2022- yilning yanvar-sentabrida – 0,2 f.p.) ga ko‘paydi.





# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

## 2022-2023- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2022- yil | 2023- yil |
|---|---|---|
| YAHM | 4,1 | 4,5 |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 3,3 | 3,6 |
| Sanoat | 5,1 | 7,0 |
| Qurilish | -3,3 | 9,0 |
| Xizmatlar | 6,0 | 3,0 |

2023- yilning yanvar-sentabrida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,6 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 41,0 %), sanoatda – 107,0 % (16,9 %), qurilishda – 109,0 % (6,8 %), xizmatlar sohasida – 103,0 % ni (35,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 104,1 % (6,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 105,9 % (5,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,0 % dan (23,2 %) iborat bo‘ldi.



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi**

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*










2023- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyatori indeksi 2022- yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 113,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko’rsatkichlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida – 116,2 % va sanoatda – 114,5 % qayd etildi.









# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

**2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**

| | Hajmi, *mlrd. so'm* | Ulushi, *% da* |
|---|---|---|
| 2022- yil | 23 145,0 | 69,2 |
| 2023- yil | 27 487,5 | 68,5 |

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 27 487,5 mlrd. so'mni tashkil etib (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 23 145,0 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 68,5 % ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 69,2 %).

Kichik tadbirkorlik-ning YAHMdagi ulushi-ning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.



